

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 355 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	



KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Ismailov Allayor Rashidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Innovatsion menejment” kafedrası

PhD dotsent

ORCID: 0009-0000-6148-342X

Ismailovallayor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola korporativ boshqaruvda Leadership 4.0 tamoyillarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Leadership 4.0 raqamli iqtisodiyot va to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida innovatsion rahbarlik usullarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Maqolada nazariy va amaliy jihatdan Leadership 4.0 tamoyillari, raqamli texnologiyalar hamda korporativ innovatsiyalarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, rahbarlikning tashkilot samaradorligi va strategik maqsadlarga erishishdagi ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, holat tadqiqotlari va ilmiy adabiyotlar sintezi usullari qo'llaniladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Leadership 4.0 prinsiplarini joriy etish korporativ boshqaruv tizimlarida qarorlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni faol qo'llab-quvvatlash hamda tashkilot samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola Leadership 4.0ni joriy etish jarayonida samaradorlikni oshirish uchun amaliy tavsiyalar ham taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Leadership 4.0, korporativ boshqaruv, innovatsion rahbarlik, samaradorlik, raqamli texnologiyalar, strategik boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the opportunities for increasing efficiency in corporate governance through the implementation of Leadership 4.0 principles. Leadership 4.0 implies the practical application of innovative leadership methods in the context of the digital economy and the Fourth Industrial Revolution. The article examines the theoretical and practical aspects of Leadership 4.0 principles, digital technologies, and their interrelation with corporate innovation. It also highlights the impact of leadership on organizational efficiency and the achievement of strategic goals. The study employs theoretical analysis, case studies, and synthesis of scientific literature. The results show that the implementation of Leadership 4.0 principles plays a crucial role in improving decision-making quality, actively supporting innovation, and enhancing overall organizational performance within corporate governance systems. The article also provides practical recommendations for increasing efficiency in the process of implementing Leadership 4.0.

Key words: Leadership 4.0, corporate governance, innovative leadership, efficiency, digital technologies, strategic management.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности повышения эффективности корпоративного управления посредством внедрения принципов Leadership 4.0. Концепция Leadership 4.0 предполагает практическое применение инновационных методов лидерства в условиях цифровой экономики и Четвёртой промышленной революции. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты принципов Leadership 4.0, цифровых технологий и их взаимосвязь с корпоративными инновациями. Также освещается влияние лидерства на эффективность организации и достижение стратегических целей. В исследовании использованы методы теоретического анализа, кейс-стади и синтеза научной литературы. Результаты анализа показывают, что внедрение принципов Leadership 4.0 играет важную роль в повышении качества управленческих решений, активной поддержке инноваций и улучшении эффективности корпоративных систем управления. В статье также представлены практические рекомендации по повышению эффективности процесса внедрения Leadership 4.0.

Ключевые слова: Leadership 4.0, корпоративное управление, инновационное лидерство, эффективность, цифровые технологии, стратегическое управление.



KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy muhit va to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) davrida korporativ boshqaruv tizimlari yangilanish va raqamli transformatsiya jarayoniga duch kelmoqda. Tashkilotlarning samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun an'anaviy rahbarlik usullari endilikda yetarli emas. Shu munosabat bilan Leadership 4.0 tamoyillari korporativ boshqaruvda muhim strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Korporativ boshqaruvda Leadership 4.0 tamoyillari raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va strategik boshqaruvni integratsiya qilib, tashkilot samaradorligi hamda innovatsion faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy rahbarlik modellaridan farqli ravishda, Leadership 4.0 korporativ qarorlar sifatini yaxshilash, xodimlarni rag'batlantirish va resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan. Ushbu tadqiqot Leadership 4.0 tamoyillarining korporativ boshqaruvda samaradorlikka ta'sirini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

Leadership 4.0 — bu raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ma'lumot tahlili, korporativ innovatsiyalar va strategik boshqaruvni birlashtiruvchi zamonaviy rahbarlik konsepsiyasidir. Ushbu tamoyillar rahbarlarning tashkilot strategiyasiga integratsiyalashuvini, xodimlarning faol ishtirokini hamda barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi. Bu model an'anaviy rahbarlikdan farqli ravishda tashkilotning raqamli qobiliyatlarini kengaytirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va korporativ madaniyatni rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Korporativ boshqaruvda Leadership 4.0ni joriy etishning asosiy maqsadi — tashkilotning strategik maqsadlariga erishish, innovatsion qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini oshirish va umumiy korporativ natijadorlikni maksimal darajada yaxshilashdir. Bu kompaniyalarga investitsion ishonchni mustahkamlash, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda biznes jarayonlarini raqamli muhitga moslashtirish imkonini beradi.

Biroq Leadership 4.0 tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator muammolar kuzatiladi. Jumladan, rahbarlarning raqamli va strategik ko'nikmalari yetishmasligi, xodimlarning innovatsion faolligi pastligi, tashkilot madaniyatining transformatsiyaga moslashmaganligi va texnologik o'zgarishlarga qarshilik kabi omillar bu jarayonni murakkablashtiradi. Shu sababli, ushbu maqola Leadership 4.0ni korporativ boshqaruv tizimida samarali joriy etish yo'llarini, uning tashkilot samaradorligiga ta'sirini hamda mavjud tajribalar asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarni tahlil qilishni maqsad qiladi.

Maqolaning asosiy vazifasi — Leadership 4.0 tamoyillarining korporativ qarorlar sifatini oshirish, innovatsion salohiyatni rag'batlantirish va tashkilot samaradorligini maksimal darajada yaxshilashdagi imkoniyatlarini aniqlashdir. Shu maqsadda tadqiqot nazariy tahlil, holat tahlillari hamda ilmiy adabiyotlar sintezi usullaridan foydalanadi. Bu yondashuv maqola natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Haleem, M. Javaid va R.P. Singhlarning ta'kidlashicha, Leadership 4.0 yetakchilarning raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqishi va uni tashkilotning biznes hamda rivojlanish ambitsiyalari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan. Buni amalga oshirishda yetakchi raqamli transformatsiyaga mos innovatsion raqamli liderlik xususiyatlarini namoyon etishi zarur[1].

M. Organa va A. Suslar Industry 4.0ning yangi shart-sharoitlarida liderlikni aniqlashga yordam beradigan asosiy ajralib turuvchi xususiyatlar majmuasini belgilashga e'tibor qaratgan. Hozirda bu turdagi liderlik Leadership 4.0 deb ataladi. Mualliflar ilgari ishlab chiqilgan tadqiqot xususiyatlari to'plami va taklif etilgan tadqiqot tartibi asosida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot jarayonini joriy etishni tavsiya etganlar[2].

G. Tsekouropoulos ta'kidlashicha, Leadership 4.0 — raqamli davrda samarali yetakchilik uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va kompetensiyalarni aniqlaydigan konsepsiyani o'rganadi. Samarali Leadership 4.0 uchun raqamli savodxonlik, strategik oldindan ko'ra bilish va emotsional intellekt uyg'unligi zarur. Yetakchilar moslashuvchanlikni namoyon etishi, innovatsiyani rivojlantirishi va uzluksiz o'qish madaniyatini shakllantirishi lozim, shundagina raqamli transformatsiyaning murakkab jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarish mumkin bo'ladi[3].

N. Dhoni va S. Perumandlarning tadqiqotlarida Industry 4.0ning turg'unlashtiruvchi ta'siriga duch kelayotgan kichik va o'rta biznes korxonalarida (SMEs) korporativ boshqaruv hamda barqarorlik amaliyotlari o'rtasidagi murakkab munosabatlar o'rganilgan. Industry 4.0'ni joriy etish jarayonida SMEs faoliyatiga barqarorlikni samarali integratsiya qilish usullari baholangan bo'lib, bunda yetakchilik va tashkiliy madaniyatning muhim roli alohida ta'kidlangan[4].

O. Awoyemi va hamkorlarining tadqiqotida yetakchilikdagi samarasizliklar tadbirkorlik va kichik biznes tashkilotlari uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib kelishi qayd etilgan. Mualliflar bunday muammolarni bartaraf etish maqsadida korporativ boshqaruvni tubdan isloh qilishga qaratilgan keng qamrovli konseptual asosni taklif etadilar[5].



M.A. Khan o'z tadqiqotida inson resurslarini boshqarish, samarali korporativ boshqaruv elementlari, ideal korporativ yetakchi xususiyatlari hamda tashkilotlarda ishchi kuchiga ta'sir qiluvchi motivatsion yetakchilik omillarini tahlil qilgan[6].

D. Moşneanu o'z izlanishida boshqaruv organlari tarkibini optimal shakllantirish uchun keng qo'llanadigan RACI matritsasi usulini taklif etgan. U turli elementlar va strategik talablarni inobatga olgan holda, elektron saralash jarayonini joriy etish va eng yuqori ballni aniqlaydigan algoritm asosida tanlash mexanizmini ishlab chiqqan[7].

R.S. Gwala va P. Mashau tadqiqotida korporativ boshqaruv, korxona samaradorligi va to'rtinchi sanoat inqilobi o'rtasidagi bog'liqlik keng tahlil qilingan. Ular 2011–2021-yillar oralig'idagi 11 yillik manbalarni qamrab olib, ilmiy hamda amaliy nuqtayi nazardan dolzarb xulosalar berganlar[8].

S.W. Behie va hamkorlari fikricha, Industry 4.0 doirasidagi o'zgarishlar transmilliy kompaniyalar uchun boshqaruvda jiddiy murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunga sabab — turli hududlardagi talab va taklifning farqliligi. Shu bois rahbariyat faoliyat jarayonlarini qayta baholashi, ilgari ishlatilmagan resurslarni jalb etishi va raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun yangi asos yaratishi lozim[9].

D.A.N. Venkateshning fikriga ko'ra, Industry 4.0 davrida rahbarlik strategiyalarini odatiy qo'llanmalar yoki nazariy manbalardan nusxa qilib tatbiq etish mumkin emas. Aksincha, rahbarlar yangicha fikrlash va innovatsion yondashuvlarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishlari hamda amaliyotda qo'llashlari zarur[10].

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy tahlil, holat tadqiqotlari va empirik tahlildan iborat. Nazariy tahlil Leadership 4.0, korporativ boshqaruv hamda raqamli transformatsiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan. Holat tadqiqotlari Leadership 4.0ning amaliy qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan. Empirik tahlil orqali rahbarlik qobiliyatlari, korporativ qarorlar sifati va tashkilot samaradorligi baholandi. Ushbu yondashuvlarning sintezi Leadership 4.0ning korporativ boshqaruvda samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Leadership 4.0 korporativ boshqaruvda raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyil an'anaviy rahbarlik modellaridan farqli ravishda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ma'lumot tahlili va strategik boshqaruvni birlashtirib, korporativ qarorlar sifati hamda tashkilot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruvda Leadership 4.0 tamoyillarini joriy etish bir nechta asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, rahbarlarning raqamli va strategik qobiliyatlari tashkilotning barqaror hamda innovatsion faoliyatini ta'minlaydi. Shuningdek, Leadership 4.0 xodimlarning faol ishtirokini kuchaytiradi va innovatsion g'oyalarning samarali amalga oshirilishini rag'batlantiradi, bu esa korporativ qarorlar sifati va umumiy samaradorlikni oshirishga olib keladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan — jumladan, sun'iy intellekt va katta ma'lumot tahlilidan (AI, Big Data) foydalanish korporativ qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Bu Leadership 4.0ning samaradorlikka ta'sirini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, Leadership 4.0 korporativ madaniyat va innovatsion muhitni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Rahbarlar tomonidan innovatsion g'oyalar va yangi usullarni qo'llab-quvvatlash tashkilotning raqobatbardoshligini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Biroq Leadership 4.0ni joriy etish jarayonida muayyan muammolar kuzatilishi mumkin. Ular orasida rahbarlarning raqamli ko'nikmalari va bilimlari yetishmasligi, xodimlarning innovatsion faolligi pastligi, tashkilot madaniyatining transformatsiyaga tayyor emasligi va raqamli muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar alohida o'rin tutadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish Leadership 4.0ning to'liq samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun zarurdir.

Tahlil va holat tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Leadership 4.0 tamoyillari korporativ boshqaruvda samaradorlikni oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Ular korporativ qarorlar sifati yaxshilash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va tashkilot samaradorligini yuqori darajada ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, Leadership 4.0ni samarali joriy etish uchun korporativ strategiyani, rahbarlik malakasini hamda raqamli texnologiyalarni o'zaro integratsiyalash zarurligi aniqlangan.

Leadership 4.0ning korporativ boshqaruvda samaradorligi quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali ta'minlanadi:

- Raqamli texnologiyalar (AI, Big Data) qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirib, korporativ samaradorlikni va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.



• Xodimlarning innovatsion faolligini rag'batlantirish va yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash korporativ qarorlar sifati hamda innovatsion loyihalar samaradorligini oshiradi.

• Korporativ madaniyat va ichki kommunikatsiyalarni Leadership 4.0 tamoyillariga moslashtirish tashkilotning umumiy samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Strategik rahbarlik va raqamli qobiliyatlarni uyg'unlashtirish korporativ maqsadlarga tezroq hamda samaraliroq erishish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Leadership 4.0 mexanizmlari va korporativ samaradorlikka ta'siri

Mexanizm	Samaradorlik yo'nalishi	Amaliyotdagi natijalar	Ilmiy izoh
Raqamli texnologiyalar (AI, Big Data)	Qarorlar sifatini yaxshilash, xavflarni kamaytirish	Qarorlar tez va aniq qabul qilinadi, resurslardan samarali foydalanish	Raqamli integratsiya korporativ qarorlarni strategik va optimal ravishda qabul qilish imkonini beradi
Raqamli va strategik rahbarlik qobiliyatlari	Strategik maqsadlarga erishish	Huquqiy va resurs jihatdan to'liq qarorlar qabul qilinadi	Leadership 4.0ning samaradorligi rahbarlarning raqamli va strategik malakasiga bog'liq
Xodimlarning innovatsion faolligi	Yangi g'oyalarni amalga oshirish	Innovatsion loyihalarining soni va sifati ortishi	Xodimlarni rag'batlantirish korporativ samaradorlikka ijobiy ta'sir qiladi
Innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash	Qarorlar sifatini yaxshilash	Strategik va amaliy qarorlar samaradorligi oshadi	Innovatsion tashabbuslar korporativ raqobatbardoshlikni ta'minlaydi
Korporativ madaniyatni raqamli transformatsiyaga moslashtirish	Barqarorlik va integratsiya	Korporativ jarayonlar samarali integratsiya qilinadi	Madaniyat Leadership 4.0 samaradorligini kuchaytirishda asosiy omil hisoblanadi

Ushbu jadval Leadership 4.0ning asosiy mexanizmlari hamda ularning korporativ samaradorlikka ta'sirini ko'rsatadi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) kabi innovatsion vositalar korporativ qarorlar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, xavflarni kamaytiradi va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, rahbarlarning raqamli va strategik qobiliyatlari Leadership 4.0ning samaradorligi uchun asosiy omil hisoblanadi. Agar rahbar zarur raqamli va strategik bilimlarga ega bo'lmasa, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyati cheklanadi.

Xodimlarning innovatsion faolligini rag'batlantirish va yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash korporativ samaradorlikni oshiradi, shuningdek, innovatsion loyihalarining natijadorligini kuchaytiradi. Jadval tahlilidan ayon bo'lishicha, Leadership 4.0 faqat texnologiyalarni joriy etish emas, balki xodimlarning faoliyati, tashabbuskorligi va korporativ madaniyatni optimallashtirishni ham talab qiladi (2-jadval).

2-jadval. Leadership 4.0ni joriy qilishdagi muammolar va tavsiyalar

Muammo	Tasnifi	Ilmiy va amaliy takliflar
Rahbarlarning raqamli va strategik qobiliyatlari yetarli emas	Qarorlar sifatini pasaytirish	Raqamli va strategik liderlik malakasini oshirish, treninglar va malaka oshirish kurslari
Xodimlarning innovatsion faolligi past	Yangi g'oyalar samarali qo'llanmaydi	Hodimlarni rag'batlantirish, innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tizimi
Korporativ madaniyat Leadership 4.0ga moslashmagan	Raqamli integratsiya va samaradorlik pasayishi	Madaniyatni raqamli transformatsiya va innovatsion usullarga moslashtirish
Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish cheklangan	Qarorlarning optimalligi va samaradorligi pasayishi	AI, Big Data va analitik vositalarni samarali integratsiya qilish, amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish
Xavflar va resurslarni boshqarishda samarasizlik	Ishlab chiqilgan strategiyalar bajarilmasligi	Raqamli tahlil orqali resurslardan va xavflardan samarali foydalanishni ta'minlash

Ushbu jadval Leadership 4.0ni amaliy qo'llash jarayonidagi asosiy muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflarni yoritadi. Muammolar orasida rahbarlarning raqamli hamda strategik qobiliyatlarining yetarli emasligi, xodimlarning innovatsion faolligi pastligi, korporativ madaniyatning Leadership 4.0 tamoyillariga moslashmaganligi va raqamli texnologiyalardan cheklangan darajada foydalanish holatlari alohida ajratib ko'rsatilgan.



Takliflar qatorida rahbarlarning malakasini oshirish, xodimlarni rag'batlantirish hamda innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, korporativ madaniyatni transformatsiya qilish va AI hamda Big Data texnologiyalarini integratsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur jadval Leadership 4.0ni samarali joriy etish uchun amaliy hamda ilmiy tavsiyalarni tizimli shaklda taqdim etib, korporativ boshqaruvda raqamli yetakchilikni kuchaytirishga yo'naltirilgan konseptual asosni yaratadi (3-jadval).

3-jadval. Xodimlar faolligi va innovatsion loyihalar natijasi

Xodimlar faolligi darajasi	Innovatsion loyihalar soni	Loyihalarning samaradorligi	Tahliliy izoh
Yuqori	Ko'p	Yuqori	Xodimlarni rag'batlantirish va faol ishtirok innovatsion natijalarni oshiradi
O'rta	O'rta	O'rta	Innovatsion tashabbuslar cheklangan, samaradorlik o'rtacha
Past	Kam	Past	Innovatsiya va samaradorlik past, Leadership 4.0 tamoyillari yetarli qo'llanilmagan

Ushbu jadval xodimlarning faolligi va innovatsion loyihalarning samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Tahlildan ko'rinib turibdiki, agar xodimlarning faolligi yuqori bo'lsa, innovatsion loyihalar soni va sifati ham oshadi, bu esa korporativ samaradorlikni hamda innovatsion tashabbuslarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Aksincha, xodimlarning faolligi past bo'lgan holatlarda innovatsion g'oyalar soni kamayadi, loyihalarning natijadorligi pasayadi va bu korporativ samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur jadval Leadership 4.0ning asosiy xususiyatini — xodimlarning tashabbuskorligi va innovatsion faolligini rag'batlantirish orqali korporativ samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkinligini yaqqol namoyon etadi (4-jadval).

4-jadval. Raqamli texnologiyalardan foydalanish va korporativ qarorlar sifati

Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi	Qarorlar sifatini baholash	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Tahliliy izoh
Yuqori	Juda yaxshi	Yuqori	AI va Big Data integratsiyasi korporativ qarorlar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi
O'rta	O'rtacha	O'rta	Qarorlar sifatini optimallashtirish cheklangan
Past	Pasaygan	Past	Qarorlar tez va samarali qabul qilinmaydi, samaradorlik pasayadi

Ushbu jadval raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va korporativ qarorlar sifati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, qarorlar sifati hamda samaradorlik raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasiga bevosita bog'liq ekanini aniqlangan:

- Yuqori darajada foydalanish — qarorlar sifati va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.
- O'rtacha darajada foydalanish — qarorlar sifati va samaradorlikni o'rtacha darajada ta'minlaydi.
- Past darajada foydalanish — korporativ qarorlar samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Bu jadval Leadership 4.0ning raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali korporativ qarorlar sifatiga bevosita va ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Leadership 4.0 tamoyillarini korporativ boshqaruvda joriy etish kompaniya samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berishini ko'rsatadi. Xususan, innovatsion loyihalar, raqamli transformatsiya va xodimlar faolligi orqali umumiy samaradorlikka ijobiy ta'sir kuzatiladi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalar hamda xodimlarning faolligi Leadership 4.0ning korporativ samaradorlikka ta'sirini qisman vositachi sifatida shakllantiradi, bu esa ma'lumot asimmetriyasi va agentlik xarajatlarini kamaytiradi. Boshqa tomondan, korporativ madaniyat Leadership 4.0ning ta'sirini kuchaytiruvchi moderator sifatida harakat qiladi — ya'ni, yaxshi korporativ madaniyatga ega kompaniyalarda Leadership 4.0ning samarasi ancha yuqori bo'ladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan, Leadership 4.0 mexanizmlari kompaniyalarda kapitalni samarali taqsimlash, rahbariyat va xodimlar faolligini oshirish hamda raqamli transformatsiya orqali barqaror foyda olish imkonini beradi.

**Takliflar:**

Kompaniyalar uchun: Leadership 4.0 prinsiplarini tashkilotning barcha darajalarida integratsiya qilish; innovatsion loyihalar hamda xodimlarni rivojlantirish dasturlariga ustuvor ahamiyat berish; korporativ madaniyatni kuchaytirish orqali Leadership 4.0ning samaradorligini maksimal darajaga yetkazish.

Regulyatorlar va siyosatchilar uchun: Korporativ boshqaruvda zamonaviy Leadership 4.0 tamoyillari va raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlovchi siyosat hamda qonunchilik asoslarini takomillashtirish; barqaror korporativ samaradorlikka erishish uchun ESG va Leadership 4.0 integratsiyasini rag'batlantirish.

Investorlar va aksiyadorlar uchun: Korporatsiyalarni baholashda Leadership 4.0 mexanizmlari va innovatsion loyihalar faolligini inobatga olish; investitsiya qarorlarida korporativ madaniyat va raqamli transformatsiya imkoniyatlarini tahlil qilishni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Haleem A., Javaid M., Singh R. P. Perspective of leadership 4.0 in the era of fourth industrial revolution: A comprehensive view //Journal of Industrial Safety. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 100006.
2. Organa M., Sus A. Leadership 4.0. New definition and distinguishing features //Procedia Computer Science. – 2023. – T. 225. – C. 3701-3709.
3. Tsekouropoulos G. et al. Leadership 4.0: Navigating the Challenges of the Digital Transformation in Healthcare and Beyond //Administrative Sciences. – 2025. – T. 15. – №. 6. – C. 194.
4. Dhone N., Perumandla S. Integrating Corporate Governance and Sustainability Practices in Indian SMEs Amid Industry 4.0: A Systematic Review //IUP Journal of Corporate Governance. – 2024. – T. 23. – №. 1.
5. Awoyemi O. et al. Revolutionizing corporate governance: A framework for solving leadership inefficiencies in entrepreneurial and small business organizations //International Journal of Multidisciplinary Research Updates. – 2023. – T. 6. – №. 1. – C. 45-52.
6. Khan M. A. Role of effective corporate governance and motivational leadership in increasing productivity and efficiency of human resources //Global Journal of Management and Business Research. – 2020.
7. Moşneanu D. Corporate governance in the digital world //14th International Conference on Business Excellence 2020. – 2020. – C. 11-12.
8. Gwala R. S., Mashau P. Corporate governance and its impact on organisational performance in the fourth industrial revolution: A systematic literature review //Corporate Governance and Organizational Behavior Review. – 2022. – T. 6. – №. 1. – C. 98-114.
9. Behie S. W. et al. Leadership 4.0: The changing landscape of industry management in the smart digital era //Process safety and environmental protection. – 2023. – T. 172. – C. 317-328.
10. Venkatesh D. A. N. Leadership 4.0: Leadership strategies for industry 4.0 //Solid State Technology. – 2020. – T. 63. – №. 6.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
